

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Jamolova Xonzoda O'rolboy qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Moliya va buxgalteriya hisobi" fakulteti

SD-61 guruh 1-bosqich talabasi

Annotation: Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda kredit tizimini isloq qilish borasida turli chora-tadbirlar olib borilmoqda ,tijorat banklariga ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda va shu orqali kredit tizimida takomillashuvlar kuzatilmoqda

Kalit so'zlar: Tijorat banklar, kredit tizimi, kredit siyosati, hisobvaraqlar, ssuda, tenglashtirilgan oylik, foiz stavkalari.

Hozirgi kunda Respublikamizda iqtisodiyotni yanada jadal rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohatlar iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan bank kredit tizimini takomillashtirishga ham katta e'tibor berilmoqda . Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muamoli kreditlarning yuzaga kelishi , ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni taqazo etmoqda . Bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va foydalanilayotgan kreditlarni oqilona sarflash , kredit siyosati doirasida hisoblangan foizlari bilan qaytarib olish eng muhim vazifa sifatida ish yuritishni talab etilmoqda . Muhtaram prezidentimizning 2017-yil 7-fevralidagi PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bank mexanizmini isloq qilish , har bir elementini chuqur o'rganish hamda mavjud muammolarni ildizini topib , bartaraf etishga davat etadi .Statistik ma'lumotlarga qaraganda , so'nggi yillarda bank aktivlaritarkibida kreditlarning ulushi 80% ga , kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli kreditlarning ulushi 95%ga , xorijiy valyutadagi kreditlarning ulushi 55%ga yaqin ekanligi bu borada risklarning yuqoriligi va ular bilan tez va samarali ishlash zaruratinini ko'rsatadi . Tijorat banklarining soni ortgani sari kredit berish ham yanada kengayib bormoqda .Tijorat banklarining har biri kredit muomalasi borasida o'zlarining kredit siyosatini ishlab chiqqan bo'lib , kredit munosabatlarini ushbu siyosat orqali amalga oshiradi . O'zbekistonda tijorat banklarining kredit siyosati mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini jadal rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan muvofiqligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadi hamda umumiyo ko'rsatmalar beriladi . Kredit kelishuvi qarzdan foydalanish shartlari qayd etilgan shartnoma bilan rasmiylashtiriladi . Ular berilish muddatiga ko'ra qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Shu o'rinda qisqa muddatli kreditlar ham qaytarilish ,

ta'minot turi va kredit berish shartlari bilan farqlanadi . Odatda qisqa muddatli kreditlarda to'lanmaslik riski baland bo'lishi bilan xavfliroqdir . Shuning uchun ular ko'p yillarga taqsimlanadi . Ba'zan kreditlar ma'lum sabablarga ko'ra , foydalanuvchining imkonsizligi natijasida ko'rilgan zararlar zaxiradan qoplanib , bank xarajatlari ro'yxatiga kiritiladi . Banklar taqdim etadigan taqdim etadigan kreditlar , ularning kimlarga berilishi bilan balans hisobvaraqlari kredit operatsiyalarini olib borish uchun quyidagi ssuda hisob-varaqlari ochiladi :

12100–Boshqa banklaraga berilgan qisqa muddatli kreditlar.

12300–Hukumatga berilgan qisqa muddatli kreditlar.

12500–Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar.

12600–Yakka tartibdagи tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar.

12700–Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar.

12900–Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar.

13100 – Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar .

Sub-hisobvaraqlarini o'z ichiga oluvchi ushbu hisobvaraqlar muddatli , muddati o'tgan , qayta ko'rildigan kreditlar bo'yicha alohida-alohida hisob yuritiladi .

Kredit operatsiyalari bo'yicha hisobvaraqlarni ochish va raqamlash tartibi .

Kredit olishdan oldin , ariza shakli bilan kreditga layoqatliliginis isbotlash kerak . Buni online , yozma shaklda yoki bank vakili bilan shaxsan amalga oshirilishi mumkin . Agar kredit tahlili dastlabki ijobjiy tavakkalchilikni baholashga olib kelsa, bank kreditni tuzishi kerak . Kreditni tuzilmalashdan maqsad xavfni kamaytirishdan iborat bo'lib , u qarz oluvchining shaxsi , qarz oluvchining korporativ tuzilmasidagi har qanday murakkabliklar va qarz oluvchining keljakdagi pul oqimlariga mos keladigan to'lov jadvali kabi tafsilotlarni o'z ichiga oladi .

Kredit qaytarish operatsiyalarining hisobi.

Kredit belgilangan muddat ichida qaytarilishi kerak . Bunda tenglashtirilgan oylik to'lovlari kreditni to'lashning eng muqobil usullaridan biridir . Ushbu tizimda kredit summasi ham asosiy qarz , ham foiz komponentlarini o'z ichiga olgan oldindan belgilangan bo'lib-bo'lib to'lanadi . Kreditlarning qaytarilishi ma'lum tavakkalchilikni talab qiladi . Shu boisdan zararlarni qoplash zaxirasining hisobi olib boriladi va 13199 balans hisob raqami ochiladi .

Kredit bo'yicha foizlarni hisoblash va ularning hisobi .

"Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida "gi 1306-sonli 2004-yilning 30-yanvarida Adliya Vazirligi tomonidan ro'yhatga olingan Nizom kredit bo'yicha foizlarni hisoblashda asosiy qo'llanmadir . Albatta bank va mijoz o'rtasida kelishilgan foiz stavkalari bilan bankka daromadlar undiriladi .

Uzoq muddatli kreditlash operatsiyalarining rasmiy lashtirilishi va hisobi .

Uzoq muddatli kreditlar asosan bir yildan o'n yilgacha berilishi mumkin . Ular ko'p xollarda :

- bino-inshoot qurilishi ;

- ishlab chiqarish obyektlarini qurish , kengaytirish , rekonstruktsiya qilish va jihozlash ;

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq :

- asosiy vositalar sotib olish ;

- asbob-uskunalar va maxsus texnika vositalari sotib olish ;

- faoliyatni kengaytirish , modernizatsiya qilish va qurilish maqsadlariga beriladi .

Banklarda uzoq muddatli kredit berish shartnomasida ko'rsatilgan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-soni «2019- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikakini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoniga 1-ilova. (QHMMB, 22.09.2018 y., 06/18/5544/1951-son; 08.03.2019 y., 06/19/5687/2723-son).
2. Credit Process –Financial Edge <https://www.fe.training/free-resources/credit/credit-process/>
3. Kredit – vikipedia